

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:43 (67104)
2016-yil
24-oktyabr

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

ONA TILIM - QALBIM QUYOSHI

(2-bet)



Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 63-umumta'lim maktabi o'quvchilari ustози Noiba Solihova bilan Respublika bolalar kutubxonasida «Davlat tili to'g'risida»gi Qonun qabul qilingan sanaga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirdan bir olam taassurot olishdi.

AVIAMODELCHILAR G'OLIB

(7-bet)



Sh. MAXMADIYEV olgan suratlar

Nashr ko'rsatkichi -

198

gazetasiga 2017-yil uchun obuna mavsumi boshlandi!

Siz maktab kutubxonasi yoki uyingizga yaqin aloqa bo'limlarida obuna bo'lishingiz mumkin.

TAHRIRIYATDAN QO'NG'IROQ QILYAPMIZ



Bugungi suhbatdoshimiz Jizzax viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Ergash JABBOROV bo'ldi.

«TONG YULDUZI» - YOSHLAR MINBARI

- Ayni damda viloyatimizda 543 ta umumta'lim maktabi faoliyat ko'rsatmoqda. Quvonarlisi, yoshlar minbari bo'lgan «Tong yulduzi» gazetasi mushtariylari safi tobora kengayib borayotir. Nashr orqali respublikamizning barcha viloyat va tumanlarida ro'y berayotgan yangiliklar, maktablarda o'tkazilayotgan tadbirlar, o'quvchilarning ijod namunalari hamda turli tanlovlarning e'lon qilinishi, farzandlarimizning ushbu gazetaga bo'lgan qiziqishlarini yanada ortitmoqda.

Joriy yil jizzaxlik o'quvchilar uchun tom ma'noda omadli yil bo'ldi. Jizzax shahridagi 1-musiq va san'at maktabi o'quvchisi Hamidulla Turdiqulov Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida o'tkazilgan xalqaro musiq tanlovida akademik vokal yo'nalishi bo'yicha g'olib chiqib, oltin kubok sohibiga aylandi. Ushbu festivalda Paxtakor tumanidagi 14-musiq va san'at maktabining «Diydor» raqs jamoasi ham faxrli 1-o'rinni egalladi. Jizzax tumanidagi 13-umumta'lim maktabi o'quvchisi Abdullajon Shomurodov esa taekvando bo'yicha «Korea open» xalqaro musobaqasida qatnashib, 3-o'ringa sazovor bo'ldi.

O'quvchilarning bunday yutuqlarini mamakat yoshlariga ibrat namunasi sifatida yetkazishda nashrning o'rni beqiyos. Shu bois, 2017-yil obunasida ham jizzaxlik o'quvchilar peshqadamlar safida bo'lishi uchun astoydil harakat qilmoqdalar.

Shavkat KAZAKBAYEV yozib oldi

Aziz o'quvchilar!

«TONG YULDUZI»

«IQTIDOR»DA IQTIDORLILAR BELLASHDI

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi va jasorati tufayli xalqimizning ko'p yillik orzulari ushaldi va o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi.

Milliy tilimizning rang-barang, jozibali ekanligi, so'zlar, iboralar, grammatik shakllardagi ma'no tovlanishlari, ohangdorligini ko'rib, faxrlanamiz. Har qancha g'ururlansak arziyidigan ona tilimiz jahon tillari orasida o'z o'rniga ega. Yana shuni ta'kidlash kerakki, xalqona so'zlashuv uslubidagi o'ynoqlik, hazil-mutoyiba, askiya hamda aytishuvlar jahondagi hech bir xalq lahjasida uchramaydi.



«Davlat tili haqida»gi Qonun qabul qilingan sana munosabati bilan yurtimizdagi barcha ta'lim muassasalarida tadbirlar bo'lib o'tmoqda.

Toshkent viloyati, Ohangaron tumanidagi 20-umumta'lim maktabida ham ona tili va adabiyot fani oyligi doirasida jonkuyar o'qituvchilar – Akramali Maxanov va Barno Hamroyevalar boshchiligidagi «Iqtidor» nomli musobaqa tashkil qilindi.

6–9-sinflarning eng iqtidorli o'quvchilaridan tashkil topgan jamoalar tezkor savollar, pantomima, savol-javob shartlari bo'yicha kuch sinashdi. Qizg'in va murosasiz davom etgan bellashuvda 6- va 8-sinf jamoalari eng yuqori ball to'plab, g'olib bo'ldilar.

210 NAFAR O'QUVCHIMIZ «TONG YULDUZI»GA obuna bo'ldi, —

**deydi Samarqand viloyati, Paxtachi tumanidagi 12-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Muhabbat ABDURAHMONOVA.**

– Bugungi yoshlarning ilm olishi, intilishi-yu qiziqishlarini ro'yobga chiqarish uchun barcha sharoitlar muhayyo. Bilim maskanimiz tumanda 2015–2016-o'quv yilida maktablar reytingi bo'yicha 1-o'rinni egallagani bejiz emas. Azamat Xolmurodov rahbarlik qilayotgan bilim dargohida bugungi kunda 688 nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya olmoqda. Ayni chog'da 2017-yil uchun «Tong yulduzi»ga 210 nafar o'quvchining obuna bo'lishi nur ustiga a'lo nur bo'ldi. Ular sevimli nashrlarida chop etilayotgan maqolalarni, hikoyalarni sevib o'qishlari, tengdoshlarining ijodiga qiziqib, o'zlari ham she'r, hikoyalar ijod qilishga harakat qilayotgani gazetaning o'quvchilar hayotida qanchalik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. 8-«A» sinf o'quvchisi Aziza Umarova a'lo baholarga o'qish bilan birga, bir-biridan chiroyli she'rlar ham yozadi. U darsdan so'ng maktabda tashkil etilgan «Yosh ijodkor» to'garagiga qatnab, tajribali ustozdan ijod qilishning yo'l-yo'riqlarini qunt bilan o'rganmoqda. U yana «Kamalak» yulduzlari» bolalar ijodiyoti festivalining tu-

man bosqichida muvaffaqiyatli qatnashib, viloyat bosqichiga yo'llanma oldi. Biz esa tengdoshingiz ijodiga baho berishni sizlarga havola etdik:

ASKAR AKAMGA

Akam bugun xizmatda,
Ona yurtim posboni.
Men esa tinch Vatanda,
Ulg'ayaman har oni.

O'sha askar akamga,
O'xshashni istar dilim.
Men ham aziz Vatanga,
Xizmat qilay har doim.

O'z muxbirlarimiz



N. SULTONOV olgan surat

SHU AZIZ VATAN – BARCHAMIZNIKI!



TANLOVIGA

Poyonsiz ko'kka narvon qo'ygana diyorimning Istiqlol sharofati ila rivojlanib borayotganligi shu yurtda yashayotgan har bir inson qalbiga iftixor baxsh etmoqda.

Ayniqsa, ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar o'zining yuksak samaralarini berayotir. Bolalar sportiga alohida e'tibor qaratilayotganligi tufayli chempionlarimiz safi kundan kun kengayib bormoqda.

6 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan bolalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish, voyaga yetmaganlarni kasbga yo'naltirish maqsadida faoliyat yuritayotgan «Barkamol avlod» bolalar markazi, Navoiy shahridagi «Yoshlar markazi» hamda tahririyatlar qoshida ochilgan «Nihol», «Chashma» to'garaklari o'quvchilar bilan g'ajumliligini ko'rib, ko'z quv naydi. Yaratuvchanlik zavqi ila yashayotgan diyorimizning hur yoshlari barcha imkoniyatlardan unumli foydalangan holda tanlov va festivallarga g'olibiga aylanishmoqda.

Dilnoza Abduhamidova, Zilola G'aybullayeva, Munisa A'zamova, Faxriy Baxtiyrov, Sardor Salimov kabi iqtidorli yoshlarning qo'lga

kiritayotgan yutuqlari viloyatimiz ahlining e'tirofiga sazovor bo'layotganini ham alohida ta'kidlash lozim. Bir so'z bilan aytganda, Vatanimizning gullab-yashnashi uchun shu o'lkada istiqomat qilayotgan har bir yurtdoshimiz o'z burchlarini sidqidildan bajarishmoqda.

Zotan, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti: «Mening tilagim, da'vatim shuki, Vatanimizning, oliyanob xalqimizning mehri va ishonchiga doimo munosib bo'ling, marrani hamisha baland olib, bilimga izlanish va o'rganishga intilib yashang, hech qachon bo'sh kelmang, aziz bolalarim!» deya biz yoshlarga yuksak ishonch bildirgan edi. Nasib bo'lsa, ana shu ishonchni, albatta, oqlaymiz. Jonajon O'zbeki tonimizning gullab-yashnashi, taraqqiy etishi uchun bor kuch-g'ayratimizni ishga solamiz.

**Umida SATTOROVA,
Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi Qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji o'quvchisi**

ONA TILIM –

QALBIM QUYOSHI

Yurtimizning barcha go'shalarida 21-oktyabr - O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun katta bayram sifatida keng nishonlanmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri Respublika bolalar kutubxonasida bo'lib o'tdi.

Anjumanga taniqli yozuvchi, shoir, tilshunos va adabiyotshunos olimlar taklif etildi.

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Abdumurod Tilavov tilimizning kelib chiqish tarixi haqida bolalarga ajoyib ma'lumotlar berdi. Yashnobod va Yunusobod tumanlaridan kelgan 61–63-umumta'lim maktabi o'quvchilari ona tilimiz haqida badiiy chiqishlar qilib, kechaga o'zgacha zavq bag'ishlashdi.

– Til insonlarning o'zaro aloqa vositasi bo'lib, Yaratganning insonga bergan bebaho ne'matidir. Dunyoda har bir xalqning o'z tili uning bebaho boyligi, iftixori hisoblanadi. Millat bor ekan, uning tili ham yashaydi, tili yashar ekan, u millat boshqa elatlar orasida o'z nufuzi, obro'siga ega bo'ladi, – deydi Yunusobod tumanidagi 61-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Noiba Solihova.

Bayram ishtirokchilari maroqli o'tgan kecha davomida tilimizning beqiyos jozibasini yana bir bor his etdilar. Ular qalbida ona allasi orqali joy olgan tilimizga bo'lgan cheksiz mehr yanada jo'sh urgan bo'lsa, ne ajab?!
Sh. KAZAKBAYEV

**2016-YIL
4-DEKABR –
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SAYLOVI KUNI**

Saylov kuniga qadar yoki saylov kuni o'n sakkiz yoshga to'lgan, ro'yxat tuzilayotgan vaqtda muayyan saylov uchastkasi hududida doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilgan O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari saylovchilar ro'yxatiga kiritiladilar. Saylovchi boshqa saylov uchastkalarida saylovchilar ro'yxatiga kiritilishi mumkin emas.

«O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonunning 21-moddasi.

SEVIMLI GAZETAMGA OBUNA BO'LDIM, SIZ-CHI?

Uning har bir sonini intiqlik bilan kutib, sahifalarini qiziqib o'qiyman. Menga, ayniqsa, «Ingliz tilini o'rganamiz», «Bizga maktub yo'llabsiz», «Bo'sh o'tirmay, bosh qotir!», «Pazanda qizgal!», «Bu qiziq!» ruknlari ostida beriladigan materiallar yoqadi. «Bilimlar bellashuvi»ning respublika bosqichi g'olibasi bo'lishimda gazetaning alohida o'rni borligini ta'kidlayman. Kitob javonimda sevimli nashrimning har bir sonini yig'ib boraman. Mana, bu yil ham «Tong yulduzi»ga birinchilardan bo'lib obuna bo'ldim.

Yangi yilda qadrdonim bilan birga bo'lishdan behad mamnunman.

Tengdoshlarimga qarata shunday deymen: «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishga shoshiling va u orqali tafakkuringizni boyiting. Barchangizga ijodiy rivoj tilab qolaman.

**Durdona AHMATOVA,
Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi
31-umumta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi**

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» gazetasini ijodkorlari! Men bir necha yillardan buyon gazetaning ashaddiy muxlisiman.



NURMUHAMMAD – ukalariga ibrat

«Tong yulduzi» a'lochilari»dan biri Nurmuhammad Abdurahmonov poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan 142-umumta'lim maktabining 6-«V» sinfida a'lo baholarga o'qimoqda.

Uning ona tili va adabiyot faniga mehri bo'lakcha. Shu bois, tengdoshingiz «Bilimlar bellashuvi – 2015»ning tuman, shahar bosqichlarida muvaffaqiyatli ishtirok etib, 1-o'ringa munosib topildi.

– Erishgan yutuqlarimda ustozim Lobar opa Masharipovaning xizmatlari katta. Ulardan juda minnatdorman, – deydi

Nurmuhammad biz bilan suhbatda. – Shuningdek, tumanimizdagi 18-umumta'lim maktabi qoshida tashkil etilgan «Step by step» ingliz tili mashg'ulotlariga ham qatnayman. U yerda bizga miss Elvira ustozlik qiladilar. 12 ta tilni biladigan bu opamizga juda havasim keladi. Tug'ilgan kunimda buvijonim menga 50000 ta so'zdan iborat «Inglizcha-o'zbekcha» lug'at sovg'a qilgan edilar. Hozirda ana shu lug'at yordamida o'qigan ertaklarimni ingliz tiliga o'girishga harakat qilyapman. Bu tilda kichik-kichik she'rilar yozishni mashq qila boshladim.

– Men ingliz tili fanidan dars beraman, – deydi sinf rahbari Shahnoza opa Rahimova. – O'quvchimning til o'rganishiga bo'lgan intilishidan juda mamnunman. Nurmuhammad bu yil «Bilimlar bellashuvi»da matematika va chet tili fanlaridan ishtirok etishga tayyorgarlik ko'rmoqda. Undan umidimiz katta.

Tinib-tinchimas tengdoshingiz sport bilan chin do'st tutingan. U futbol, shaxmat-shashka singari sport turlariga qiziqadi.

Nurmuhammad oilada bosh farzand. Xalqimizda: «Katta arava ortidan kichiklari ergashadi», degan naql bor. Ukasi Ibrohim, singillari Munisaxon va Mo'linaxon ham akasidan har tomonlama ibrat olib, a'lochi bo'lishsa, ajab emas.

Dilrom HOTAMOVA

Von daftarchangiz BORMI?

Bugungi globallashuv zamonida texnika va texnologiya shiddat bilan taraqqiy etib bormoqda. Bunday paytda biz yoshlardan o'qib-o'rganish, izlanish talab qilinadi.

O'qish jarayonida kerakli ma'lumotlarni von daftarchaga yozib borish yaxshi natija beradi. Ayniqsa, chet tillarni o'rganishda yangi so'zlar

qayd etib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. «Ilm bobida nimaiki eshitsangiz, yozib qo'ying. Chunki eshitgan so'z unutiladi, yozilgani esa muhrlanganday turadi», degan edi donishmandlardan biri.

Shunday ekan, barcha tengdoshlarimga von daftarcha tutishni maslahat beraman.

**Sitora ABDURAHMONOVA,
Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanidagi 63-umumta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi**

Hech o'ylab ko'rganmisiz, insonlar nima uchun salomlashib, hol-ahvol so'rashishadi? Aslida, bu ezgu odat qayerdan paydo bo'lgan?

KIMGA SALOM BERAY?

Shuni aytish kerakki, ibtidoiy jamoalar davrida ham kishilar turli imo-ishoralari, tovushlar orqali bir-birlari bilan salomlashishgan.

Ammo hozir salomlashish odati haqidagi so'zlab beradigan voqeaning barchani mushohadaga chorlashi tayin.

Bir kuni shoshib kollej tomon bayrotsam, farzandiga o'shqirayotgan ayolga ko'zim tushdi.

– Namuncha, barchaga salom beraverasan? Oldingdan chiqqan hammaga yetti buklima. Taniganlarga salom bersang bo'lgani...

Bu gaplarni hech tortinmay so'zlayotgan ayolini ko'rib, to'g'risi, uyaliy ketdim. Ovozini balandlatib

gapirishini-ku aytmasa ham bo'ladi. Nahotki, bola tarbiyasida muhim o'rin tutadigan onalar tarbiya poydevorini chala qurayotgan bo'lsa?

Bir donishmand aytgan ekan: «Uyingda shunday ko'zgu borki, sen unga har kuni qaraysan. Har ko'zing tushganida, fazilatingni ham, nuqsoningni ham ko'rasan. Bu ko'zgu farzandingdir...»

Aziz zamondoshlar, farzand deb atalmish ko'zguning nur taratib turishi, unga har gal boqqaningizda afsus chekmaslik uchun xattiharakatlaringizga e'tiborli bo'ling.

**O'g'iloy BOZORQULOVA,
Buxoro viloyati,
Qorako'l tumani**

GULISTONNING MARJONASI

Ana shunday yosh iste'dod egalariidan biri Marjona Tojiddinova Guliston shahridagi 16-umumta'lim maktabining 6-sinfida ta'lim oladi. U rasm chizishga juda qiziqadi. Darsdan bo'sh vaqtlarida qo'lga qalam olib, rang-barang manzaralarni tasvirlashga intiladi.

Qizidagi qiziqishni ko'rgan onasi Mohira opa uni shahardagi 2-Bolalar musiqa va san'at maktabiga olib bordi. Bugungi kunda Marjona tasviriy san'at fani o'qituvchisi Nabijon Jumaboyevdan rasm chizishning sir-sinoatlarini o'rganmoqda. Turli tanlovlarda ishtirok etib, sovrindor bo'lishga erishmoqda.

– Bo'sh vaqtlarimda ertak kitoblar o'qish, shu bilan birga, shashka o'ynashga qiziqaman, – deydi yosh iqtidor egasi.

Jonajon yurtimizning go'zal manzaralarini o'zining mo'jaz asarlarida aks ettirayotgan bu o'quvchimiz kelajakda yaxshi rassom bo'lishiga ishonamiz.

**Sunnatilla USANBOYEV,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 34-umumta'lim maktabining tasviriy san'at fani o'qituvchisi**



Bugungi kunda barcha umumta'lim maktablarida ijodkor soni ko'payib bormoqda.


MOZIYDAN SO'ZLOVCHI MASKAN

Joriy yil Temuriylar tarixi davlat muzeyining tashkil topganiga 20 yil to'ldi. Haqiqatan ham, 1996-yil 18-oktyabr sanasi xalqimiz tarixida unutilmas bayram bo'lgan. O'sha kun poytaxtimizda Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Samarqand va Shahrisabzda Amir Temur haykallari ochilgan va bu ko'hna shaharlar Amir Temur ordeni bilan mukofotlangan.

Bugungi kunda ilmiy markazga aylangan muzeyda 5 mingdan ziyod eksponat saqlanadi. Ular orasida miloddan avvalgi 2 ming yillikka oid Sopollitepa va Jarqo'ton topilmalari, Dalvarzintepaning milodiy I asrga oid oltin buyumlari, Afrosiyob va Toshkentdan topilgan X-XI asrga oid sopol idishlar, Amir Temur va temuriylar davriga oid ko'plab noyob qo'lyozmalar, rasmiy hujjatlar, kumush va mis tangalar, mis buyumlar, me'moriy qoplamalar, qurol-yarog', cholg'u asboblari, etnografik buyumlar mavjud. Oxirgi uch yilda ushbu ma'rifat maskaniga o'n mingdan ziyod ekskursiyalar uyushtirildi. Muzey sayti (temurid.uz) o'zbek, rus, ingliz tillarida ishlab turibdi. Joriy yilda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati bilan hamkorlikda muzeyning to'liq virtual ko'rinishi yaratildi. Unda markaz zallari bo'yab

sayohat va eksponatlar zamonaviy 3D shaklda namoyon bo'ladi.

Sayohat chog'ida siz o'nlab noyob tuhfalarga guvohiga aylanasiz. Fransiyaliklar tomonidan taqdim etilgan Amir Temur byusti, Berlin Islom muzeyidan keltirilgan «Boysung'ur Mirzoning 28 miniatyurası» kitobi, Ozarbayjonning islmiy-naqshli duxoba gilami shular jumlasidandir. Sohibqironning ot ustida va taxtda o'tirgan chinni haykallari, ko'k billur vaza, Amir Temur va Mirzo Ulug'bek tasviri tushirilgan chinni lagan, XIX asrga oid mis ko'za aynan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan muzeyga sovg'a qilinganligi bilan qadrlidir.



Hayot o'tib boraveradi. Kelajak avlod mard va jasur ajdodlar qoldirib ketgan shonli tarix zarvaraqlarini o'rganishdan to'xtamaydi. Bugungi osuda damlarimiz ota-bobolarimiz fidoyiligi evaziga bunyod etilganini his etish har bir o'g'il-qiz qalbida iftixor tuyg'usini uyg'otadi. Tarixiy muzeylar bu yo'lda eng yaqin yo'ldosh bo'lib xizmat qiladi.


Feruza ABDUSAMAD qizi

Kuni kecha poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 193-umumta'lim maktabida ana shu nomda tadbir bo'lib o'tdi.



KO'ZIM QAROG'ISAN, VATAN!

Anjumanni o'tkazishdan asosiy maqsad, taniqli adiblarimizning Vatan haqida yozgan asarlarini yana bir bor yod etishdan iborat edi. Tadbirda o'quvchilar Saïda Zunnunova, Shuhrat, Po'lat Mo'min kabi marhum ijodkorlarimiz asarlaridan ifodali she'rlar o'qib, sahna ko'rinishlarini namoyish etishdi.



Shuningdek, ustozlardan Shahnoza Ahmadaliyeva va Dilrabo Rahmatovalar tomonidan tayyorlangan turli mavzulardagi savollarga o'quvchilar tomonidan chiroyli javoblar berildi. Ayniqsa, 7-sinf o'quvchilari Salohiddin A'zamov, Farida Ismoilova, Madina Yusupovalar tomonidan o'qilgan she'rlar barchaga manzur bo'ldi.

Qolaversa, maktabda o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish maqsadida ko'plab ko'rik-tanlovlarda o'tkazib kelinmoqda. Ta'lim maskanidagi navbatdagi tadbir «Orasta qizlar – salomat sizlar» shiori ostida tashkil etildi. Musobaqani o'tkazishda tajribali ustozlardan Ma'mura Mahkamova hamda jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi Malika Jabborova, Malika Karimovalarning xizmati katta bo'ldi.

O'quvchilar 60 metr masofaga yugurish, velopoyga, arqonda sakrash, uzoqqa to'p otish bo'yicha o'zaro bellashdilar.

Manzura UBAYDULLAYEVA

UCHKO'PRIKLIK MUTARJIM

Intiluvchan yigit-qizlarimiz fan, sport, san'at bo'yicha o'tkazilayotgan nufuzli xalqaro tanlov va fan olimpiadalarida g'alaba qozonib, yurtimiz davrug'ini butun dunyoga yoymoqda.



Farg'ona viloyatining Uchko'priq tumanidagi Agrosanoat kasb-hunar kolleji o'quvchisi Nilufar Nishonova qalbida ingliz tiliga bo'lgan havas erta uyg'ondi. 3-sinfligida «Kechagi va bugungi Toshkent» mavzusi-da ingliz tilida yozgan inshosi bilan maktab bo'yicha 1-o'rinni egalladi. O'qituvchilari Mastura Qodirova, Dilbarxon Asqarova, Dilfuza Alimova, Dilbarxon Shokirovalardan chuqur bilim olib, 4-sinfidan boshlab «Bilimlar bellashuvi»da muvaffaqiyatli qatnashib keldi.



U 2014-yilda «Yuksak ma'naviyatli avlod» festivali doirasida o'tkazilgan ko'rik-tanlovda «Prezident asarlari bilimdoni» yo'nalishi bo'yicha Respublikada 1-o'rinni egalladi.

Nilufar tarixda o'chmas iz qoldirgan mashhur o'zbek ayollari haqidagi ma'lumotlarni to'plab, ingliz tilida kitob tayyorlashni maqsad qilgan edi. U ma'rifatli, fidoyi, zahmatkash, qalbi go'zal o'zbek ayollari nomini, ular amalga oshirgan ibratli ishlardan dunyo ahlini xabardor etishni o'ziga faxr deb biladi.

Bolalik, o'smirlik paytimizda biz ham To'maris, Nodirabegim kabi momolarimiz haqida eshitganmiz. Biroq, ikki og'izgina gapdan iborat

ma'lumot bilan yetarli darajada taassurot hosil qilib bo'lmaydi. Istiqloq yillarida ong-u tafakkurimizda katta o'zgarishlar yuz berdi. O'zligimizni angladik, kimlarning avlodi ekanimizni bildik. Bugun kichik yoshdagi maktab o'quvchisi ham buyuk bobolarimiz, momolarimiz haqida kerakli ma'lumotga ega. Ular to'g'risida so'z borganda, faxr-iftixor hissini tuyadi.

Qahramonimiz o'z maqsadini otasi G'ayrat akaga aytgach, u qizi bilan birga kutubxonalarga, ARMLarga bordi. Muzeylarni aylanib, kerakli ma'lumotlarni olishda yaqin ko'makchi bo'ldi.

Muallifning mazkur «Buyuk o'zbek ayollari» – «The Great uzbek women» nomli tarjima to'plami uning ilk ijodiy ishlaridan biridir. Unda tom ma'noda ma'naviy jasorat ko'rsatgan buyuk momolarimiz hayoti va ularning boy adabiy merosi o'zbek va ingliz tillarida, sodda va ravon tarzda yoritib berilgan.

Mazkur risola tez orada o'z o'quvchilarini topib, yosh avlodning ma'naviy kamolotida munosib o'rin egallashi, shubhasiz. Tilagimiz, Nilufarxon kabi bilimni, ijodni, axloqni bilan buyuk ajdodlariga munosib bo'lgan barkamol yoshlar safi kengayaversin.

Nodira NAZAROVA

HANDWASHING WITH SOAP

(Toza qo'llar)

Read with your teacher



Global evidence shows that washing hands with soap at critical times can protect children from deadly infections like diarrhea and cholera.

Recently over 7000 School Children and Teachers Promote Handwashing with Soap in Five Regions of Uzbekistan. Simple act of handwashing with soap could save children's lives.

UNICEF is supporting the Ministry of Public Education in promoting this important behaviour among school students by rolling out a campaign in five regions – Djizakh, Kashkadarya, Surkhandarya, Khorezm and the Republic of Karakalpakstan. The campaign will engage over 7000 school children in remote parts of these regions, their caregivers and school teachers.

On the eve of Global Handwashing Day, UNICEF says that in 2015, more than 300,000 children under the age of five died globally from diarrhea infections linked to poor access to safe drinking water and sanitation – a rate of more than 800 per day.

«The government of Uzbekistan is committed to ensuring that children stay healthy and are protected from diseases like diarrhea. Parents and teachers have an important role in promoting handwashing at home



and in school», said Khilola Aslanova, WASH Officer, UNICEF Uzbekistan. She added that «hand washing makes sense as a preventive habit to keep children safe from disease – it's simple, cost effective and a proven lifesaver». «Simple practices like hand washing with soap before meals and after using the toilet

prevent diseases like pneumonia and diarrhea and reduce the incidence of diarrhea infections by 40 percent», said Sascha Graumann, UNICEF Representative in Uzbekistan. «This result can be achieved by ensuring that children and families adopt a very simple solution – handwashing with soap», he added.

WITH MY FOREIGN FRIEND

Do you speak English? – Ingliz tilida gapirasizmi?

A little – Oz-moz.

I understand English but I cannot speak it. – Men ingliz tilini tushunaman, lekin gapira olmayman.

What is your name?

– Ismingiz nima?

My name is Tom. – Mening ismim Tom.

Where are you from?

– Qayerdانسiz?

I'm from Great Britain. – Buyuk Britaniyadanman.

How old are you? –

Yoshingiz nechada?

I'm 20 (twenty) –

Yoshim yigirmada.



Vocabulary base

HOW MANY ARTICLES IN ENGLISH?

(Ingliz tilida nechta artikl bor?)

Artikl otlar oldida ishlatiladigan maxsus so'zlardir. Artikl o'zbek tilida mavjud emas va uning alohida tarjimasi yo'q.

Ingliz tilida 2 xil artikl bor: Noaniq artikl (Indefinite article) va aniq artikl (The Definite article).

Noaniq artiklning ikkita shakli bor: **a** va **an**. An unli tovushlar bilan boshlanadigan otlar oldidan ishlatiladi: *an opera, an apple, an hour*. Qolgan hollarda a artikli ishlatiladi: *a pen, a book, a student*. Noaniq artikl faqat birlikdagi otlardan oldin qo'yiladi.

Aniq artikl the eski ingliz tilidagi (*u, o'sha*) ko'rsatkich olmoshidan kelib chiqqan bo'lib, ba'zi hollarda hozir ham dastlabki ma'nosini saqlab qolgan. Aniq artikl otni boshqa shu turdagi otlardan ajratib ko'rsatganda ishlatiladi. e.g. *Give me the matches.*

Your teacher DINORA

IF SYNONYMS TALK...

(Sinonimlar tillashganda...)

Find English version of these words.

Mazali: totli, shirin

TASTY



Yorug': nurli, yorqin, charog'on

LIGHT



Painter: YOQUBBEK

THERE IS (ARE)

Grammar corner



O'quvchiga hali noma'lum bo'lgan shaxs yoki buyumning biror joyda yoki biror vaqtda mavjudligini ifodalash uchun **there is (are)** birikmasi ishlatiladi, u *bor, mavjud* deb tarjima qilinadi.

There is (are) birikmasi gapning boshida keladi, lekin o'zbek tillga gapning oxiridan tarjima qilinadi.

There is birikmasidan keyin birlikdagi otlar, **there are** esa ko'plikdagi otlar bilan ishlatiladi. **There is (are)** birikmasi to be yordamchi fe'lining turli zamonlarida ishlatilishi mumkin.

For example:

There is a pen on the table. – Stolning ustida bitta ruchka *bor*.

There are many apples in the basket. – Savatda ko'p olmalar *bor*.

Dono AHMEDOVA

Sarvinov NAZAROVA, the pupil of lyceum under Uzbek State World Languages University



G'AROYIBOTLAR SHAYDOSI

Jizzax viloyatining qay bir go'shasida bo'lmasin, maktab hayotidagi har qanday yangilik nazaridan chetda qolmaydi. Hatto maktabgacha ta'lim muassasalariga ham befarq emas. Zomindagi maktab o'quvchisining «Bilimlar bellashuvi»dagi yutug'i, g'allaorlik san'atsevar bolalarning musiqiy chiqishlari, qo'yingki, Jizzax viloyatidagi bolalar hayotiga oid xushxabarlardan birinchilar qatori u kishi orqali xabardor bo'lamiz.



Bugun esa qahramonimizning yana bir qirrasini bilan sizlarni ham tanishtirgimiz keldi. Abdulla ota chappast ovchi sifatida ham ko'pchilikka yaxshi tanish. Viloyatda u kishi chiqmagan tog', qadami yetmagan to'qayzor qolmagan. Shu bois bo'lsa kerak, tabiat mo'jizalari haqida so'z boshlaganlarida vaqtning qanday o'tganini ham sezmay qolasan, kishi. Qaysi qush qachon uchib keladi, qay bir jonivorlardan ehtiyot bo'lish kerak, Abdulla otadan so'rayversiz. Ulkan tog' cho'qqisidagi mitti giyohlarning xususiyatlari haqida-ku so'zlab charchamaydilar. U kishining kuni kecha «O'zbekiston» NMIU tomonidan chop etilgan «Tabiat g'aroyibotlari» nomli kitobi ham ona tabiatga bo'lgan beqiyos mehning shirin hosilasi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Abdulla ota Saidov gazeta-muzimning faol mualliflaridan. Uzoq yillar maorif sohasida xizmat qilganidanmi, nafaqaga qaramay, chiqqaniga qaramay, bolalar nashrlaridan ko'ngil uzolmaydi.

Gap bilan bo'lib yana bir yangilikdan sizlarni ham xabardor qilish xayolimizdan ko'tarilay debdi. Shu kunlarda Abdulla bobo tabarruk 70 yoshni qarshiladilar. Ko'p ming sonli gazetxonlarimiz nomidan u kishini tavallud kunlari bilan muborakbod etamiz.

Yusuf OG'A

ONA TILIM

Jahonda tillar bisyor, Solishtirmam o'zingni. Ulardan kam emassan, Alishmasman so'zingni.

Xalqim tili – bek tili, Asrlarga teng erur. Bizlar uchun yagona, Mohiyati keng erur.

Alladur-u alyordir, U mening ko'rar ko'zim. Ajdodlarim qalbidan, Otilib chiqqan so'zim.

Muxlisa JO'RABOYEVA, poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 313-umumta'lim maktabining 8-«G» sinf o'quvchisi



SHUKRONALIK

Yurtim, tuprog'ingni ko'zimga surtay, Vatanni tark etganni nima deb atay?! Obod elimda yayrab, ulg'ayib, Go'zal bog'laringni qog'ozga bitay.

Hayrat-la boqaman binolaringga, Eng zo'r ta'riflar o'g'il-qizingga. Shukronalar aytib, har bir kuningga. Sadoqat-la yaray o'zim koringga.



Feruza ISLOMOVA, Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi 8-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

YURT MEHRI

Qish ham yaqinlashgan on, Bulutga to'lar osmon. Qushlar baland ucharlar, Keng samoni qucharlar.

Yo'l olar safda bari, Issiq o'lkalari sari. Kelishi bilan bahor, Izga qaytishar takror.

Qo'msab aziz makonni, Ayamay hatto jonni. Yo'lni orqaga burib, Ayvonlarda in qurib.

Chug'urlashib sayrasha Eshitganlar yayrashar.

Yurtga mehrin qo'yganlar, Uni jondan suyganlar. Ko'p yashasin, bor bo'lsin, Baxt-iqbolga yor bo'lsin.

Lobar JUMANIYOZOVA, Xorazm viloyati, Xiva tumanidagi 35-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi

OZODLIK NASHIDASI

Har bir fasl to'kindir bari, Yo'l ochilar go'zallik sari. Hatto qushlar ketmaydi nari, Ozod yurtning ostonasidan.

Buyuk ne'mat erur ozodlik, Balki shundan paydo obodlik. Arimaydi quvonch-u shodlik, Ozod yurtning ostonasidan.

Ro'zigul O'ROZALIYEVA, Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 27-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Qadimdan odamlar vaqtni to'g'ri taqsimlash, foydali ish bilan shug'ullanishni odat qilgan ekanlar. Vaqt aslida uch aka-uka bo'lib, ular soat, daqiqa va soniya deb yuritilgan ekan.

Kunlarning birida ota o'g'li-dan soat necha bo'lganini so'rabdi. Bola:

– O'n ikkidan qirq besh daqiqa o'tdi, – deb javob beribdi.

Buni eshitgan soat mag'rur jilmayib:

– Ana, ko'rdinglarmi, insonlar faqat menga qarab ish tutishadi, yolg'iz meni tilga olishadi. Demak, eng asosiy vaqt birligi – o'ziman, – debdi ukalari daqiqa va soniyaga.

– Hechamda, agar men bo'lmasam, siz ham vaqtni belgilay olmasiz, yolg'iz sizni emas, meni ham qo'shib aytishadi, – bo'sh kelmasdi daqiqa.

– Bekor gap, – bahsga qo'shilibdi soniya ham, – hoy dangasalar, hali mensiz mustaqil yashamoqchimisiz? Men yo'q ekanman, ikkingizga ham o'rin yo'q. Orangizda eng mehnatkashi kamina bo'ladi.

Murosasiz bahs uzoq davom etib, aka-ukalar hech kelisholmasdi. Axiyri, bir-biriga achchiq qilib, o'z yumushlarini bajarishdan to'xtashibdi. Shundan keyin hamma yoq alg'ov-dalg'ov bo'lib ketibdi. Odamlar ishlash, dam olish paytini bilolmay qolibdi.

Soat sheriklariga qaraganda ancha tajribalroq bo'lganligi uchun, daqiqa va soniyani insofqa chaqiribdi. Barcha narsa tartibga tushishida har birining o'rni muhim ekanligini tushuntiribdi. Aka-ukalar darrov o'rinlariga o'tirib, aniqlik bilan o'z vazifalarini ado etishga kirishibdilar. Asta-sekin hayot iziga qaytibdi.

Og'a-inilar esa hech qachon janjallashmaslikka ahd qilishibdi.

Gulira'no HAMIDULLAYEVA, Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi 6-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi



(Ertak)

Ahillik



YOSHLARIMIZ CHORAK FINALDA

Shu kunlarda Bahrayn poytaxti Manama shahrida yoshlar (U-19) o'rtasida futbol bo'yicha Osiyo chempionati bo'lib o'tmoqda. Ayni paytga kelib bahslar o'zining eng qizg'in pallasiga kirgan.



Mazkur turnirning yarim finaliga qadar yetib borgan jamoalar Janubiy Koreyada bo'lib o'tadigan jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritishadi. Biz uchun quvonarlisi, O'zbekiston yoshlar terma jamoasi ham o'zining ajoyib o'yinlari bilan barchamizni xushnud etishmoqda.

D guruhida bahslarga kirishgan yosh charm to'p ustalarimiz musobaqadagi ilk o'yinini qo'shni tojikistonlik tengqurlariga qarshi o'tkazdi. Keskin va murosasiz tarzda kechgan bahs yakunida Jasur Abduraimov shogirdlari 2:1 hisobidagi ishonchli g'alabani tantana qilishdi. Jamoamizning gollarini Saidjamol Davlatjonov va Jasur Yaxshiboyevlar raqib darvozasiga kiritishdi.

Ikkinchi turda futbolchilarimiz «Kengurular mamlakati» – Avstraliya yoshlar terma jamoasiga qarshi maydonda saf tortishdi. Quvonarlisi, mazkur o'yin ham vakillarimizning to'liq ustunligi ostida o'tdi. Birinchi bo'limda jamoamiz Bobur Abduxoliqov va Dostonbek Ibragimovning gollari tufayli 2:0 hisobida oldinga chiqib olishdi. Ikkinchi bo'limning boshida, aniqrog'i, 47-daqiqada Dostonbek Ibragimov raqib darvozasiga yana bitta to'p kiritib, hisobni yirik ko'rinishga olib keldi. Shundan so'ng, Jasur Abduraimov shogirdlari biroz xotirjamlikka berildi va o'z darvozalaridan 2 ta to'p olib chiqishga majbur bo'ldi. Lekin shunga qaramay, futbolchilarimiz o'yin oxiriga qadar g'alabani o'z qo'llarida ushlab qolishdi.

Shunday qilib, ketma-ket qo'lga kiritilgan ikki g'alaba orqali O'zbekiston yoshlar terma jamoasi muddatidan avval guruhda 1-o'rin bilan chorak final yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Sa'dullo TURSINOV

AVIAMODELCHILAR G'OLIB

Kuni kecha Toshkent shahrida «Barkamol avlod» Respublika bolalar texnik ijodiyot markazi tomonidan «Xonada uchuvchi samolyot modellari» musobaqasining Respublika bosqichi bo'lib o'tdi.

Unda yurtimizdagi «Barkamol avlod» bolalar markazlarining «Aviamodel» to'garagi a'zolari 3 yo'nalish bo'yicha o'zaro bellashdilar. F-1-M yo'nalishi bo'yicha Samarqand shahridagi 35-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Azamatshoh Sharipov 1-, Toshkent viloyati, Olmaliq shahridagi 16-umumta'lim maktabi o'quvchisi Mirvohid Ismonaliyev 2- hamda Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 28-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Zafar Sharipov 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Shuningdek, F-1-D hamda ko'rgazmali modellar yo'nalishi bo'yicha ham g'oliblar aniqlandi.

Jamoalar bo'yicha Samarqand viloyati 1-, Buxoro viloyati 2-, Surxondaryo viloyati vakillari 3-o'rinni egallashdi.

Shavkat SINDOR o'g'li



H. HAMIDULLAYEV olgan surat

O'rta Chirchiq sanoat va servis kasb-hunar kolleji Toshkent viloyatidagi nufuzli ta'lim maskanlaridan biridir.

KOLLEJDA BOG'CHA BOLALARI



Mustaqilligimizning 25 yilligi arafasida ta'lim maskanining ta'mirdan chiqqan sport zali o'quvchilarga munosib bayram tuhfasini bo'ldi. Ayni damda o'quvchilar barcha qulayliklarga ega zalda voleybol, basketbol, futbol va stol tennis kabi to'garaklarga jalb qilingan. Mashg'ulotlarni I. Toirov hamda X. Sulaymonova singari malakali murabbiylar olib borishmoqda.

Yaqinda kollej rahbari Rustam Bobojonov tashabbusi bilan maskan qoshida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolajonlar uchun gimnastika to'garagi tashkil etildi. Quvonarlisi, to'garak a'zolari safi kun sayin kengayib bormoqda.

Xurshida SULAYMONOVA

BUVISINING QIZI

Suratdagi qizaloq Mubina Islomjonova bo'ladi. Poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi Bobur mahallasida istiqomat qiluvchi bu iqtidor egasi haliolti yoshga ham to'lmagan.

Nabirasidagi sportga bo'lgan havasni payqagan Muhabbat aya uni «Rakat» mahallasida ochilgan «Bibixonim gulshani» sog'lomlashtirish markazidagi badiiy gimnastika to'garagiga yetaklab bordi. Mana bir yildirki, u murabbiyi Parizoda Egamberdiyevadan nafis san'at turi sirlarini o'zlashtirib kelmoqda. Endilikda jajji sportchi oyoq uchlariida ohista harakatlar ila lenta va koptok o'ynata oladi.

Mashg'ulotlardan qaytgach, oila a'zolariga o'rgangan mashqlarini namoyish etadi. Uning birinchi tomoshabini kichkintoy singlisi Madina bo'ladi. Mubina hade may 118-umumta'lim maktabining tayyorlov guruhiga qatnaydi. 2-sinfda o'qiydigan opasi Robiyadan «Jonajon maktab», «Kitobim» va «Vatan» kabi she'rlarni yodlab ham olgan. «Qaniydi, ustozim Parizoda opa singari zo'r sportchi bo'lsam», deya orzu qiladi u. Biz esa beg'ubor qalb egasining musaffo osmondagi tiniq orzulari ushlishini tilab qolamiz.

Nozima JAVHAROVA



Mana, o'quv

yilining birinchi choragi ham tugab bor-yapti. Sunnatillo ham boshqa tengdoshlari kabi maktabga tez ko'nikib ketdi. Bog'chadalik davridayoq yuzgacha sanashni o'rganib olgan bolakay hozirda matematika fanining eng hozirjavob o'quvchilaridan.

bilan birga tayyorlashni yaxshi ko'radi. Chunki bu-visi ustozni Sharifa opa singari misollarni oson tushuntiradi.

Yaqinda Nasiba aya nabirasini yetaklab pochta bo'limiga olib bordi va ular «G'uncha», «Tong yulduzi» nashrlariga obuna bo'lishdi. Qanday mazza!

OBUNACHILARIMIZ SONI yana bittaga ko'paydi

Sunnatillo Muhammadaliyev Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi 26-umumta'lim maktabining 1-«B» sinf o'quvchisi. Matematika, ingliz tili fanlariga qiziqadi. «Atrofimizdagi olam» darsi uning eng sevimli mashg'ulotlaridan biri. Buvisi Nasiba aya bilan televideniyeda beriladigan hayvonot olamiga oid hujjatli filmlarni tomosha qilishni yoqtiradi. Uyg'a vazifalarni ham ular



Endi u sevimli gazeta-jurnallari orqali ingliz tilini o'rganib, ijodkor o'quvchilar she'rlaridan yod olmoqchi.

Sunnatillo ustozni va sinfdoshlarini juda yaxshi ko'radi. U mustaqil yozishni o'zlashtirib olsa, sevimli gazetasiga maktabi haqida maqola jo'natmoqchi. «Tong yulduzi»ning kichik muxlisidan maktablar kutub qolamiz.

NURBEK

VAQT QADRI



Modira SHAHVAKOVA chizgan rasmi

Vaqtini yo'q qiz Dilnoza, Ish qilar doim toza. O'qishda eng a'lochi, Maktabida ovoza.

Vaqtini yo'q qiz Dilnoza, Kiyimchalar to'qiydi. Bo'sh qoldimi, albatta, Kitobini o'qiydi.

Vaqtini yo'q qiz Dilnoza, Tikishni ham biladi. Kattalarning so'ziga, Doim amal qiladi.

Vaqtini yo'q qiz Dilnoza, Hozirda to'qqiz yoshda. Yangi g'oya, yangi o'y, Bordir uning boshida.

E'zoza MUHAMMEDOVA, Toshkent shahri, Uchtepa tumanidagi 193-umumta'lim maktabi o'quvchisi

BO'SH O'TIRMAI. BOSH QOTIR!

«ONA ZAMIN NE'MATLARI» AYLANMA KROSSVORDI

Sersuv meva	Nok navi	Danakli ho'l meva	Ta'mi achchiq sabzabot	Kuzpi-shar olma
Shaftoli navi				Olma navi
Poliz ekini				Tog mevasi
Oshko'k turi				Qovun navi
Sabza-vot ekini				Ildiz mevali sabzavot

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

TO'PISHMOQLAR

Keling, hozir men sizga, Mevalarni ta'riflay. Keyin esa siz bizga, Topib bering har qalay:

Rangi yashil, ham sariq, Chiroqqa o'xshar aniq. Yoz bo'yi chiroq yoniq, Kuzda darmoni tortiq.



Bir xil novda va yaproq, Turli rang meva biroq. Yashil, siyohrang, qora, To'p-to'p bo'lishib inoq, Tizilib turar, qara.

Bir xonada ming lashkar, Qizil kiyimli askar. Yashar ular panada, Oq pardali xonada.



Dilnoza HOJIBOYEVA, poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 165-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan xalqaro xayriya fondlari

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAYATI:
Dilshod KENJAYEV, Svetlana INOMOVA, Bahodir G'ANIYEV, Murtazo SULTONOV, Vahobjon RAJAPOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruza JALILOVA, Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Sa'dullo TURSINOV
Rassom
Feruzbek KAMOL og'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV
Fotomuxbir
Zubayda MAMATQULOVA

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etiladi. Manzilimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz Adadi - 25701 Buyurtma - S 7305

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Shakli A-3, 2 bosma ta'baq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi. Topshirish vaqti - 18:00 Topshirildi - 18:00 Tel./faks: (99871) 244-63-08